



QURILISH ISHLARI 2019 yilning yanvar-aprel oylarida

Raqamlar:

Qurilish ishlari

hajmi -

822,8 mlrd.so'm

Yirik pudrat
tashkilotlari ulushi

2,7 %

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar
ulushi -

72,1 %

Norasmiy sektor
ulushi -

25,2 %

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Namangan viloyatida jami 822,8 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,4 % ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 22,6 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,7 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 72,1 % yoki 593,5 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 25,2 % yoki 206,7 mlrd.so'mga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,9 % ni tashkil etdi.

Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi - **22,6 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **114,3 %**

Kichik tashkilotlar
va mikrofirmalar

- hajmi - **593,5 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **105,7 %**

Norasmiy sektor


- hajmi **206,7 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **111,9%**

2019 yilning yanvar-aprel oylarida Namangan viloyatida jami 822,8 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,6 mlrd.so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Joriy yilda jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 22,6 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 mlrd.so'mga ko'paydi.


Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmi 593,5 mlrd.so'mga to'g'ri keladi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,8 mlrd.so'mga ko'paydi.

Norasmiy sektor hissasiga esa 206,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 33,6 mlrd.so'mga ko'paydi.





IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA QURILISH ISHLARI (mlrd.so'mda)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi 578,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi nisbatan 103,2 mlrd so'mga ko'paygan.

Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 70,7 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 20,2 mlrd.so'mga kamaygan.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi esa 174,1 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yil davriga nisbatan 52,7 mlrd.so'mga ko'paygan.

Yanvar -aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqorolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Yanvar -aprel oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqorolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,4 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % ga ko'paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 64,0 % (0,6 % ga ko'paydi) va norasmiy sektorning ulushi 35,6 % (0,7 % ga kamayish) ni tashkil etdi.


Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 26,0 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 12,8 % ga ko'paydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 72,7 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 13,2 % ga kamaydi. Norasmiy sektorning ulushi 1,1 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,4 % ga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % punktga kamaydi va 1,1 % ni tashkil etdi. Qolgan 98,9 % kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % punktga ko'paydi.



Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 782,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 95,1 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,6 foizga ko'paydi.






QURILISH ISHLARI HAJMI HUDUDLAR KESIMIDA



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo`yicha tarkibida Namangan shahri yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 62,5 % yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.




Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Namangan shahrida (210,8 mlrd.so'm yoki 115,9 %) - Namangan shahrida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan, kadastr hujjatlari shakllantirilgan yakka tartibdagi turar joylar hamda maishiy hizmat ko'rsatish ob'ektlarini qurish ishlarini bajarilgan;

Uychi tumanida (91,9 mlrd.so'm yoki 115,3 %)- Uychi tumani hududida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Kosonsoy tumanida (76,7 mlrd.so'm yoki 131,4 %)- Kosonsoy tumanida jismoniy shaxslar tomonidan yangi qurilgan turar joylar hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;




Hududlar kesimida qurilish ishlari

№	Shahar tumanlar	2018 yil yanvar-aprel (mlrd,so'm)	2019 yil yanvar-aprel (mlrd,so'm)	O'tgan yilga nisbatan (%)	Jamiga nisbatan ulushi (%)da
Viloyat bo'yicha jami:		687,2	822,8	106,7	100,0
1	Namangan shahar	162,0	210,8	115,9	25,6
2	Mingbuloq tumani	28,1	30,4	96,6	3,7
3	Kosonsoy tumani	52,4	76,7	131,4	9,3
4	Namangan tumani	86,9	86,5	89,3	10,5
5	Norin tumani	40,1	38,0	86,8	4,6
6	Pop tumani	25,6	38,8	126,3	4,7
7	To'raqo'rg'on tumani	56,4	57,1	90,2	6,9
8	Uychi tumani	71,2	91,9	115,3	11,2
9	Uchqo'rg'on tumani	49,2	55,7	101,3	6,8
10	Chortoq tumani	40,0	47,8	108,0	5,8
11	Chust tumani	38,8	45,8	107,0	5,6
12	Yangiqo'rg'on tumani	36,5	43,3	107,5	5,3

Hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmini salmoqli hissasi quyidagi shahar va tumanlarda kuzatildi, Xususan, Namangan shahri 210,8 mlrd,so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,9 % ga o'sdi, Kosonsoy tumanida 76,7 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31,4 % ga o'sdi, Pop tumanida 38,8 mlrd,so'mlik

qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,3 % ga o'sdi, Uychi tumanida 91,9 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,3 % ga o'sdi. Chust tumanida 45,8 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga o'sdi, Uchqo'rg'on tumanida 55,7 mlrd,so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,3 % ga o'sdi.




Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Namangan shahrida bajarilgan bo'lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 25,6 % ni tashkil etdi, Namangan tumanida 10,5 % ni tashkil etdi, Uychi tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 11,2 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Norin tumanida ushbu ko'rsatkich 4,6 % ni Mingbuloq tumanida bu ko'rsatkich eng past 3,7 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchqo'rg'on tumanida 6,8 % ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

2019 yilning yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmda hududlarning ulushi

(umumiy hajmga nisbatan %da)



Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi
Aloqa telefoni: (0371) 230-84-85